



HISTORY AND FORMATION OF THE PROSECUTOR'S OFFICE IN INDEPENDENT UZBEKISTAN

Abdulaziz Abdumalikov

Student

Faculty of Law, Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

M. Umirzaqova

Lecturer, Namangan State University

E-mail: abdulazizabdumalikov2107@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Prosecutor's Office institution, history of the prosecutor's office, prosecutorial supervision, rule of law, legal state, legal reforms, Constitution, powers of the prosecutor's office, law enforcement agencies, comparative analysis.

Received: 21.06.26

Accepted: 22.06.26

Published: 23.06.26

Abstract: This article provides a scientific and legal analysis of the historical formation of the prosecutor's office and the stages of its development in independent Uzbekistan. First, the emergence of prosecutorial bodies, the evolution of their functions, and their role in the system of public administration are examined. On this basis, the legal foundations of the prosecutor's office in the period of independence are revealed, particularly the changes in its powers and responsibilities as defined by the Constitution and relevant laws. Building on this analysis, the article conducts a comparative study of historical and modern prosecutorial systems, summarizing their key differences and development trends.

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA PROKURATURA TARIXI VA UNING SHAKLLANISHI

Abdulaziz Abdumalikov

Namangan DU Yuridik fakulteti talabasi

Namangan, O'zbekiston

M. Umirzaqova

NamDU o'qituvchisi

abdulazizabdumalikov2107@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Prokuratura instituti, prokuratura tarixi, prokuror nazorati, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat, Konstitutsiya, prokuratura vakolatlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada prokuratura institutining tarixiy shakllanishi va uning mustaqil O'zbekiston sharoitidagi rivojlanish bosqichlari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilinadi. Avvalo, prokuratura organlarining vujudga kelishi, ularning funksional evolyutsiyasi hamda davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni yoritiladi. Shu asosda, mustaqillikdan so'ng prokuratura faoliyatining huquqiy asoslari, xususan, Konstitutsiya va maxsus qonunlar doirasida uning vakolatlari, vazifalaridagi o'zgarishlar ochib beriladi hamda tarixiy - zamonaviy prokuratura tizimlari o'rtasida qiyosiy tahlil o'tkazilib, ularning asosiy farqlari hamda rivojlanish tendensiyalari umumlashtiriladi.

ИСТОРИЯ И ФОРМИРОВАНИЕ ПРОКУРАТУРЫ В НЕЗАВИСИМОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Абдулазиз Абдумаликов

Студент юридического факультета

Наманганский государственный университет

Наманган, Узбекистан

М. Умирзакова

Преподаватель Наманганский государственный университет

E-mail: abdulazizabdumalikov2107@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Институт прокуратуры, история прокуратуры, прокурорский надзор, верховенство закона, правовое государство, правовые реформы, Конституция, полномочия прокуратуры, правоохранительные органы, сравнительный анализ.

Аннотация: В данной статье проводится научно-правовой анализ исторического формирования института прокуратуры и этапов его развития в условиях независимого Узбекистана. Прежде всего, рассматриваются вопросы возникновения органов прокуратуры, эволюции их функций и их места в системе государственного управления. На этой основе раскрываются правовые основы деятельности прокуратуры в период независимости, в частности, изменения в ее полномочиях и задачах, закреплённые

Конституцией и специальными законами. В логическом продолжении исследования в статье проводится сравнительный анализ исторической и современной систем прокуратуры, обобщаются их основные различия и тенденции развития.

Kirish. Bugungi kunda huquqiy davlat qurilishi jarayonida qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquq hamda erkinliklarini ishonchli himoya qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda prokuratura instituti alohida o'rin egalaydi. Chunki u davlat hokimiyati tizimida qonunlarning aniq va bir xil ijro etilishi ustidan nazoratni ta'minlovchi muhim huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, prokuratura institutining vujudga kelishi, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy sharoitdagi mazmun-mohiyatini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ushbu institutning turli siyosiy-huquqiy tizimlarda qanday shakllanganini tahlil qilish uning bugungi kundagi funksiyalari va o'rnini to'g'ri anglash imkonini beradi.

Prokuratura instituti tarixda ilk bor Yevropa davlatlarida, xususan, Fransiyada shakllangan bo'lib, uning vujudga kelishi monarxiya hokimiyatini mustahkamlash hamda davlat manfaatlarini himoya qilish zarurati bilan chambarchas bog'liqdir. O'rta asrlar davrida Fransiya qirollik sudlarida qirol nomidan ish yurituvchi maxsus vakillar — prokurorlar faoliyat ko'rsatgan. Ular davlat nomidan ayblovni ilgari surish, sud jarayonida qirol manfaatlarini ifodalash hamda qonunlarga rioya etilishini nazorat qilish vazifalarini bajargan. Shu tariqa prokuratura dastlab davlat hokimiyatining muhim tayanchi bo'lgan va jazolovchi hamda nazorat funksiyalarini o'zida mujassam etgan institut sifatida shakllangan.

Mazkur institutning shakllanishi va rivojlanishi keyinchalik boshqa Yevropa davlatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Xususan, Fransiya prokuratura tizimi tajribasi Chor Rossiyasida prokuratura organlarining tashkil topishiga asos bo'lib xizmat qildi. Petr I davrida, 1722-yilda Rossiya imperiyasida prokuratura organlarining tashkil etilishi ushbu institutning yanada markazlashgan va tizimli shaklga ega bo'lishiga olib keldi. Bu davrda prokuratura "davlat ko'zi" sifatida e'tirof etilib, davlat apparati faoliyati ustidan umumiy nazoratni amalga oshiruvchi muhim organ sifatida namoyon bo'ldi. Natijada, prokuratura faoliyati nafaqat sud jarayonlari bilan, balki butun davlat boshqaruvi tizimi bilan uzviy bog'lanib bordi.

Prokuratura institutining keyingi rivojlanish bosqichi Sovet Ittifoqi davriga to'g'ri keladi. Ushbu davrda prokuratura organlari yanada keng vakolatlariga ega bo'lgan oliy nazorat organiga

aylantirildi. Ular davlat hokimiyati organlari, korxonalar, tashkilotlar hamda mansabdor shaxslar faoliyati ustidan umumiy nazoratni amalga oshirib, qonunlarning bir xil va aniq ijro etilishini ta'minlashga xizmat qilgan. Prokuror nazorati prinsipi ushbu tizimning asosiy yo'nalishi sifatida shakllanib, markazlashgan boshqaruvni mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shu bilan birga, prokuratura institutining tarixiy rivojlanishini faqat Yevropa tajribasi bilan cheklab bo'lmaydi. Chunki ijtimoiy-huquqiy nazoratning ayrim shakllari Sharq mamlakatlarida ham mavjud bo'lgan. Xususan, Markaziy Osiyo

hududida, jumladan Buxoro amirligi davrida sud-huquq tizimi shariat qoidalari asosida faoliyat yuritgan. Bu tizimda qozilar muhim o'rin tutib, ular davlat rahbari tomonidan tayinlangan va o'z faoliyatida nisbatan mustaqil bo'lgan. Qozilar nafaqat nizolarni hal etish, balki shariat meyorlariga rioya etilishini nazorat qilish hamda mahalliy hokimiyat faoliyatining qonuniyligi haqida yuqori hokimiyatga axborot berish vakolatiga ega edi. Mazkur holat o'ziga xos tarzda prokuratura institutining dastlabki funksional elementlariga yaqinligini ko'rsatadi.

Yuqoridagi tarixiy bosqichlar shuni ko'rsatadiki, prokuratura instituti izchil evolyutsion rivojlanish jarayonini bosib o'tgan. Dastlab u davlat manfaatlarini himoya qiluvchi vakillik organi sifatida shakllangan bo'lsa, keyinchalik markazlashgan nazorat organiga aylangan va hozirgi bosqichda huquqiy davlat sharoitida inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi muhim institut sifatida rivojlanib bormoqda. Demak, prokuratura organlarining vazifalari va funksiyalari tarixiy taraqqiyot jarayonida tobora kengayib, murakkablashib borgan.

Shunday qilib, prokuratura instituti tarixan Fransiyada vujudga kelib, keyinchalik Rossiya va sovet tizimi orqali takomillashgan hamda turli hududlarda o'ziga xos shakllarda rivojlangan. Masalan, sovet hokimiyati boshqaruvi ostida bo'lgan Turkistonda ham prokuratura organlarining faoliyati alohida tartibda tashkil etilgan. Xususan, Turkiston o'lkasida prokuratura organlari 1922-yilning 31-oktabrida "Turkiston ASSRda Prokuratura nazorati to'g'risida" qabul qilingan Nizomga ko'ra yo'lga qo'yilgan hamda mazkur tashkilotga soliq tizimini yaxshilash vazifasi yuklatilgan. Yuklatilgan vazifalar doirasida prokuratura organlari tomonidan yagona qishloq xo'jalik solig'ini to'lashda dehqonlarga nisbatan soliq idoralari xodimlari tomonidan qilingan tahdidlar aniqlangan hamda 20 ta noqonuniy harakat haqida ish qo'zg'atilgan.

Mazkur tarixiy tajriba zamonaviy prokuratura tizimlarining shakllanishi uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ushbu rivojlanish bosqichlari mustaqil davlatlarda, jumladan O'zbekiston Respublikasida prokuratura tizimini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach, davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilish jarayonida prokuratura organlari faoliyati ham yangicha huquqiy asosda qayta shakllantirildi. Sobiq sovet tuzumidan meros bo'lib qolgan markazlashgan nazorat tizimi bosqichma-bosqich zamonaviy huquqiy davlat talablariga moslashtirildi. Mazkur jarayonda prokuratura organlarining faoliyat yo'nalishlari, vakolatlari hamda institutsional o'rni qayta ko'rib chiqildi va zamon talablari asosida takomillashtirildi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq milliy prokuratura tizimini shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonda prokuratura organlarining asosiy maqsadi sifatida qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda davlat manfaatlarini qo'riqlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Mazkur ustuvorliklar prokuratura institutining mazmun-mohiyatini tubdan yangilashga xizmat qildi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan huquqiy islohotlar natijasida prokuratura organlarining vakolatlari va funksiyalari yanada takomillashtirildi.

Xususan, jinoyatlarni tergov qilish ustidan nazoratni amalga oshirish, davlat ayblovini sudlarda qo'llab-quvvatlash, tezkor-qidiruv faoliyatining qonuniyligini ta'minlash hamda sud qarorlarining qonuniyligini tekshirish kabi yo'nalishlar rivojlantirildi. Shu bilan birga, hokimiyatlar bo'linishi prinsipini mustahkamlash maqsadida ayrim vakolatlar qayta taqsimlanib, xususan, sanksiya berish vakolatining sud organlariga o'tkazilishi prokuratura faoliyatining demokratik asoslarini kuchaytirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, prokuratura organlarining fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy sud ishlarida ishtirok etishi ularning faoliyat doirasini kengaytirib, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilishdagi rolini yanada mustahkamladi. Mazkur holat prokuratura organlarining huquqiy tizimdagi o'rnini kompleks tarzda namoyon etadi.

So'nggi yillarda prokuratura faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda institutsional islohotlar amalga oshirildi. Bu jarayonda prokuratura organlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, fuqarolar murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashishdagi rolini kuchaytirish muhim yo'nalishlar sifatida belgilandi⁴.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida sud-huquq tizimini isloh qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash va inson huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida prokuratura organlari faoliyatiga yangi vazifalar yuklatildi. Mazkur strategiya prokuratura tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirishda muhim dasturiy asos bo'lib xizmat qildi.

Ilmiy yondashuvlarga ko‘ra, mustaqil O‘zbekiston prokuraturasi klassik nazorat organidan zamonaviy huquqiy institutga aylanish bosqichini bosib o‘tdi. Bugungi kunda u nafaqat davlat manfaatlarini himoya qiluvchi, balki inson huquq va erkinliklarini kafolatlovchi hamda sud-huquq tizimining ajralmas qismi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Shunday qilib, mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida prokuratura instituti izchil huquqiy islohotlar asosida shakllanib, uning faoliyati mustahkam huquqiy asoslar bilan ta‘minlandi. Bu esa prokuratura organlarining zamonaviy huquqiy davlat qurilishidagi o‘rni va ahamiyatini yanada kuchaytirishga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni, 1992-yil 9-dekabr.
3. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2001-yil 30-avgust
4. “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” // Lex.uz.URL.11.06.2026
5. Umirzakova M. Turkistonda soliq siyosati va uning oqibatlari (1917-1924-yy). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Farg‘ona, 2025. – 150 b.
6. Прокуратура. Санкт-Петербург, 1987. – Л. 6. Lex.uz.URL.11.05.2026
7. Tuychiev B. Prokuror nazorati: nazariya va amaliyot. – T.: TDYU nashriyoti, 2018.
8. . Sovet davri prokuratura tizimi bo‘yicha ilmiy-huquqiy adabiyotlar.Lex.uz.URL.11.05.2026
9. Markaziy Osiyoda shariat asosidagi sud tizimi bo‘yicha tarixiy manbalar.Lex.uz.URL.11.05.2026